

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

MUXAMMAD YUSUF SHE‘RIYATIDA VATAN MAVZUSI VA UNI TUSHUNTIRISH METODIKASI

Kushvaktov Ne‘mat Husanovich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti

Raximbayev Jo‘rabek Sobirovich

Urganch davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola Muhammad Yūsuf she‘rlarida Vatan mavzusini talabalarga tushuntirish metodikasi haqida malumotlar beradi.

Kalit so‘zlar: she‘r, vatan, muxabbat, kuy, tarix, mutafakkirlar, shoirlar, olimlar, ta‘lim, tarbiya, metodlar.

Аннотация: В статье представлена информация о методике объяснения учащимся темы Родины в стихотворениях Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: поэзия, родина, любовь, мелодия, история, мыслители, поэты, ученые, образование, воспитание, методы.

THE THEME OF THE MOTHERLAND AND THE METHODOLOGY OF ITS EXPLANATION IN THE VERSES OF MUHAMMAD YUSUF

Abstract. This article in the poems of Muhammad Yusuf provides information on the methodology for explaining the homeland to students.

Keywords: poetry, homeland, love, melody, history, thinkers, poets, scientists, education, education, methods

Kirish. Markaziy Osiyoda yashab o‘tgan mutafakkirlar, shoirlar va olimlarning faoliyatini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masala sanaladi. Xususan bizning davrimizda yashab ijod qilayotgan va yashab o‘tgan zamodosh shoirlarning faoliyatini o‘rganish bugungi kunda o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzulardan hisoblanadi. Biz ushbu kichik hajmli tadqiqotimizda biz bilan hamnafas bo‘lgan shoir Muhammad Yūsuf haqida ma‘lumot beramiz.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Muhammad Yūsuf 1954 yili 26 aprel kuni Andijonning Marhamat tumanidagi Qovunchi qishlog‘ida oddiy mehnatkash oilada tavallud topgan.

Muhammad Yusuf bolaligidan adabiyotga qiziqqan. 1978 yilda Rus tili va adabiyoti instituti (hozirgi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti)ni tamomlagan. Muhammad Yusuf she‘riyatiga ta‘rif berilganda esa ko‘pgina adabiyotshunoslar uning she‘riyatidagi

xalqonalikning bosh xususiyat ekanligini aytadilar. Jumladan, adabiyotshunos olim Ozod Sharofutdinov “Muhammad Yusuf qo‘shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini barala aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she’rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi” [1] deya shoir ijodinining haqqoniy bahosini bergan bo‘lsa, “... Darhaqiqat, u o‘z elini, xalqi, Vatanini chin farzandday, beg‘araz, sidqidildan yaxshi ko‘rar edi. SHu mehrning natijasi o‘laroq, uning she’riyati ham xuddi shundoq beminnat va beg‘araz she’riyat sifatida maydonga keldi” [2.10], deya ijodkor qalbini ta’riflagan edi o‘zbekning ulkan shoiri Abdulla Oripov.

Muhammad Yusuf she’riyatini ko‘zdan kechirar ekanmiz, uning adabiyotga kirib kelgan ilk yillaridanoq individual uslubi, ijodiy yo‘nalishiga ega bo‘lganligining guvohi bo‘lamiz. SHoir o‘z ijodi davomida «Tanish teraklar» (1985, shoirning ilk kitobi). «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudagi qiz», «Halima enam allalari» (1989), «Ishq kemasi» (1990), «Ko‘nglimda bir yor» (1991), «Bevafo ko‘p ekan», «YOlg‘onchi yor» (1993), «Erka kiyik» (1995), «Osmonimga olib ketaman» (1998), «Ulug‘imsan, vatanim» (2004) kabi o‘ndan ortiq she’riy to‘plamlariga kiritilgan she’rlarida rang-barang mavzularga to‘xtalgan bo‘lsa-da, ulardagi bosh mavzu Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat va mehr hisoblanadi.[3].

Shoir o‘zi to‘g‘risida

Nechun qulluq qilmay Andijonga men

Shu yurtda tug‘ildim, shu yurtda o‘sdim.

Agar do‘stim bo‘lsa bitta u do‘stim

Nechun qulluq qilmay Andijonga men!.. deya faxr bilan kuylaydi.

Shoir ijodini o‘rganish jarayonlarida shu narsaga amin bo‘damizki, u to umrining oxiriga qadar turli ijodiy usullarda zavq bilan ijod qilgan. Masalan, shoirning “Bulbulga bir gapim bor” (1987) to‘plamitga kiritilgan “YUragim” she’riga bir nazart solsak.

Tuproq yurtim mening,

To‘pori yurtim,

Ko‘zimga to‘tiyo g‘ubori, yurtim.

Eng xushro‘y gullar xushruxsori yurtim,

Eng xushbo‘y bog‘larning ifori yurtim,

Eng baland tog‘lardan yuqori yurtim,

Murodi ko‘nglimning xumori yurtim...

Benavo bilmagan, Bedard sigmagan,

Beyuzga benasib diydori, yurtim!, deya butun mexrini berib vatanni madx etadi. Buning mazmun moxiyatini yoshlarga yetkazishda pedagogdan kasbiy maxorat talab qilinadi. Shoir nima uchun vatanni “Tuproq yurtim mening, To‘pori yurtim” deganda nimani aytmoqchi bo‘lgan. Vatan sodda va agrar yo‘nalishda ekanligiga ishorami? - bu. Yoki xalqning tuproqdek sof, uningdek bag‘rikeng ekanligini ko‘rsataib berganmi?, mana shoirning falsafiy qarashlari naqadar ilmiy. Muxammad Yusuf vatanni shu qadar yaxshi ko‘radiki “Ko‘zimga to‘tiyo g‘ubori, yurtim” deya baralla kuylaydi. Shu bilan bir qatorda vatan go‘zalligini ko‘rsata turib

uni seva olmaganlar borasida” Benavo bilmagan, Bedard sigmagan, Beyuzga benasib diydori, yurtim” ham falsafiy mushoxada qiladi. Bu misralar ustida o‘qituvchi izlanib, klaster, debat, axborot va telekommunikatsion vositalardan foydalangan holda talablarga tushuntiradi. Bu yerda o‘qituvchi mustaqillikdan oldingi davr bilan bog‘lab she‘r ustida ishlasa maqsadga muoffiq bo‘ladi. Yana bir she‘riga e‘tibor qarataylik.

Tanishterak. Ariqyoqasi.

Bo‘tanasuv, shirin loyqasuv.

Tol ko‘chadaotlartaqasi...

Kanchabo‘ldiko‘rmaganimga.

O‘qituvchi ushbu satrlarni o‘qib axborot texnologiyalaridan foydalangan holda qishloq manzarasini monitorga chiqarish kerak. Ariq bo‘yida qator o‘sib turgan teraklar, ular mayingina tebranib turishi sizda qanday tuyg‘ularni uyg‘otdi. Talbalarni mushoxadaga chorlaydi. Shu bilan bir qatorda talabalarining ijodiy fikrlashini kuzatib boradi, lozim topilsa qo‘shimchalar qiladi. “Bo‘tana suv, shirin loyqa suv.” Bu misrada shoir nima demoqchi. Muxammad Yusufning hayotiy, falsafiy qarashlarini bizga nimani anglatmoqda. O‘qituvchi bu misralarni ifanlar bilan integratsiya qilishni so‘raydi. Endi talbalar boshqa fanlardan olgan bilimlari bilan o‘rtoqlashadi.

Muxammad Yusuf qishloqni sog‘ingani uchun ham

Yalpiz hidi tutgan dalalar,

Gapga chechan bog‘chaxolalar,

Belanchakda yotgan bolalar...

Qancha bo‘ldi ko‘rmaganimga -deya ularni mexr bilan qo‘msaydi”. Yalpiz hidi” sof tabiatning belgisi hisoblanadi. Qishloqqa borishingiz bilan yalpiz hidini tuyasiz, u sizga o‘zgacha tarovat baxshida etadi”. Belanchakda yotgan bolalar” sizlarga nimani eslatdi. Birinchi naabatda onamiz ko‘z oldimizga keladi. Onaning farzandga bo‘lgan mexri har narsadan ustun turishi integrativ yondoshuv asosida tushuntiriladi. Masalan, so‘zning lug‘aviy ma‘nosini bilish uchun lug‘atlarga, belanchakka oid tuyg‘ularga oshno bo‘lish uchun san‘atga murojaaaat qilamiz.

Belanchak - chaqaloqlarni yotqizib ovutiladigan yoki uxlatiladigan, arg‘imchoqdek yoki beshikdek tebratiladigan moslama. *Oyim esa belanchakka ulangan ipni har zamon-har zamon silkib-silkib qo‘yadi.* M.Xidir, *Qirg‘oqlar. Chetan devor ortidagi qo‘rg‘oncha ayvonida yoshgina juvon belanchak tebratib, qo‘shiq aytardi.* S. Ahmad, Hukm.

2 ko‘chma. Dunyoga kelish uchun sabab bo‘luvchi, voyaga, kamolga yetkazuvchi; allalovchi narsa haqida. *Baxtbelanchagi. Zaminbelanchagi, Ketmasin boshimizdan asl o baxt belanchagi.* A. Oripov. *Senga alla aytdi keksa samovot, Egilib zaminning belanchagiga.* E. Vohidov. *Haligina shirin uyquning belanchagida allalanilayotgan jangchilar duv ko‘tarildi, go‘yo sokin o‘rmondan ogahon o‘q uzilgandi.* Shuhrat, Shinelliyillar.[4].

Muxammad Yusufning vananparvarlik g‘oyalarini talablarga o‘rgatishda uning “Vatan” deb nomlangan she‘ridan keng foydalanish mumkin. Bunda biz axborot va telekommunikatsion vositalart imkoniyatidan foydalanib mant mazmunini tushuntiramiz.

Vatanim
Men dunyoni nima qildim,
O‘zing yorug‘ jahonim,
O‘zim xoqon, O‘zim sulton
Sen taxti Sulaymonim,
Yolg‘izim, Yagonam deymi,
Toppingan koshonam deymi,
O‘zing mening ulug‘lardan
Ulug‘imsan, Vatanim...
Ol, deyabir kun Egam,
Osmonga uchsa ruhlarim.
Bir ajib moviy diyor,
Bo‘yini quchsa ruhlarim.

Ko‘k mening ko‘ksim bo‘lur deya ulug‘ shoir butun umri davomida she‘riyatga oshno bo‘lib yashadi. U o‘z umri iyakunida ham muxlislari qurshovida she‘riyatning issiq bag‘rida 2001 yil 31 iyul kuni Qoraqalpog‘istonning Ellikqal’a tumaniga qilingan ijodiy safar chog‘ida, yuzlab muxlislari bian uchrashuv paytida yurak xurujidan vafot etdi. Muhammad Yusuf Andijon viloyatida dafn etilgan.

Tadqiqot natijalari

Muhammad Yusuf she‘riy to‘plamlari

Muhammad Yusufning birinchi she‘riy to‘plami 1985 yilda “Tanish teraklar” chop etilgan.

1987 - “Bulbulga bir gapim bor” she‘riy to‘plami.

1988 yil - “Iltijo” she‘riyto‘plami

1989 yil - “Uydagiqiz”, “Halima enamallalari” she‘riy to‘plamlari

1990 yil — “Ishq kemasi”

1990 yil - “Ko‘nglimda bir yor”

1991 - “Bevafoko‘pekan”

1992 - “Yolg‘onchi yor”, “Erkakiyik”,

1998 - “Osmonimga olib ketaman”.

Muhammad Yusuf “Osmonning oxiri”, “Qora quyosh” singari dostonlar yaratdi. Ushbu to‘plamlar va dostonlarda turli mavzudagi she‘rlar, asosan shoirning bolaligida eshitgan hikoya va ertaklari, o‘smirlik yillari, ona qishlog‘i, vatan, muxabbat, tabiat, insoniylik kabi mavzulari yoritilgan. Shoirning she‘rlari uning vafotidan keyin ham chop etilgan. “Ulug‘imsan, Vatanim” (2004), “Saylanma” (2007), “Xalq bo‘l, elim” (2009) she‘riy kitoblari nashr etilgan.

Mustaqillik yillarida yaratgan she‘rlari

Shoirning “Vatanim”, “Xalq bo‘l, elim”, “Dunè”, “Inshoolloh”, “O‘zbekmomo”, “Iqror”, “Tilak” singari o‘nlab she‘rlari chop etildi.

Mukofotlari

1989 yilda "Uyqudagi qiz" nomli she'riy to'plami uchun u respublika Yoshlar tashkilotining mukofotiga sazovor bo'lgan.

1998 yilda "O'zbekiston xalq shoiri" unvoni berildi.

1996 yil shoir O'zbekiston YOZuvchilar uyushmasi a'zosi bo'ladi. Avvaliga adabiy maslahatchi, 1997 yildan to umrining oxirigacha uyushma raisi o'rinbosari lavozimida ishlagan.

Muhokama. Mazkur kitoblarga kirgan she'rlarda Muhammad Yusufga mansub bo'lgan avlodning eng oliyjanob va yuksak insoniy fazilatlari bilan birga yoshlik sururi, ishq va muhabbatning nafis navolari, o'zbekona, sodda, ayni paytda ezgu, bokira va betakror tuyg'u hamda kechinmalari o'zining yorqin ifodasini topgan. So'zning badiiy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuyg'ular tiniqligi, samimiylik va mayinlik, ruhiyat manzaralarini lo'nda va yakdil ifodalay bilish Muhammad Yusuf she'riy uslubining etakchi xususiyatlaridir. Uning qalamiga mansub aksariyat she'rlar taniqli xonandalar tomonidan ijro etilmoqda.

Xulosa. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Muhammad Yusufning adabiy merosini tadqiq qilish o'zbek adabiyoti hamda ma'naviyatini, aniqroq qilib aytganda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni haqqoniy tarzda yoritib berishda ko'mak beradigan ilmiy badiiy meros sifatida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон халқ шоири Муҳаммад Юсуф – Ватан ва муҳаббат куйчиси” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман манбалари, 2021-йил 24-апрель. Тошкент. – 2021. 266 бет.

2. “Ўзбекистон халқ шоири Муҳаммад Юсуф – Ватан ва муҳаббат куйчиси” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман манбалари, 2021-йил 24-апрель. Тошкент. – 2021. 266 бет.

3. Ф.Н.Бўриева, филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон-Финландия педагогика институти, Самарқанд. МУҲАММАД ЮСУФ ШЕЪРИЯТИ: ХАЛҚПАРВАРЛИК ВА ДАРД \\<https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/muhammad-yusuf-sheriyati-xalqparvarlik.html>

4. O'zbek tilining izohli lug'ati.